

## XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI



Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 45 922 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 35 162 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 76,6 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (50,6 %), savdo (15,9 %), sanoat (9,7 %) va qurilish (5,0 %) sohalariga to'g'ri keladi.



### Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2023 yil 1 yanvar holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
<b>Jami</b>	<b>45 922</b>	<b>100,0</b>	<b>35 162</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23 233	50,6	13 970	39,7
sanoat	4 469	9,7	4 080	11,6
qurilish	2 295	5,0	2 205	6,3
savdo	7 285	15,9	6 747	19,2
tashish va saqlash	674	1,5	634	1,8
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 728	3,8	1 610	4,6
axborot va aloqa	309	0,7	283	0,8
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	377	0,8	352	1,0
boshqa faoliyat turlari	5 552	12,0	5 281	15,0

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 27 732 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 25 842 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 93,2 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (26,3 %), sanoat (16,1 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (18,2 %) va qurilish (8,3 %) sohalariga to'g'ri keladi.



**Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
(2023 yil 1 yanvar holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	jamiga nisbatan foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
<b>Jami</b>	<b>27 732</b>	<b>100,0</b>	<b>25 842</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5043	18,2	4655	18,0
sanoat	4469	16,1	4080	15,8
qurilish	2295	8,3	2205	8,5
savdo	7285	26,3	6747	26,1
tashish va saqlash	674	2,4	634	2,5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1728	6,2	1610	6,2
axborot va aloqa	309	1,1	283	1,1
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	377	1,4	352	1,4
boshqa faoliyat turlari	5552	20,0	5281	20,4



Jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning  
hududlar bo'yicha taqsimlanishi  
(2023 yil 1 yanvar holatiga, birlik)

	2023 yil 1 yanvar holatiga ro'yxatga olinganlar soni	shuningdek, 2022 yil yanvar-dekabr oylari davomida:	
		yangi tashkil etilganlar	tugatilganlar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>45 922</b>	<b>4 822</b>	<b>1 242</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	7 822	1 104	267
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	2 594	176	76
Baxmal	3 884	367	98
G'allaorol	5 201	490	146
Sharof Rashidov	6 261	541	75
Do'stlik	2 123	293	103
Zomin	4 369	469	101
Zarbdor	3 673	290	106
Zafarobod	2 054	171	26
Mirzacho'l	2 279	220	46
Paxtakor	2 234	228	45
Forish	2 496	363	137
Yangiobod	932	110	16

2022 yilning yanvar–dekabr oylarida jami 4 822 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'yektlari 4 660 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 1 104 tasi, yoki 22,9 %) hamda Sharof Rashidov (541 tasi, yoki 11,2 %) G'allaorol (490 tasi, yoki 10,2 %) Baxmal (367 tasi, yoki 7,6 %) Zomin (469 tasi, yoki 9,7 %) Forish (363 tasi, yoki 7,5 %) Do'stlik (293 tasi, yoki 6,1 %) Zarbdor (290 tasi, yoki 6,0 %) Paxtakor (228 tasi, yoki 4,7 %) Mirzacho'l (220 tasi, yoki 4,6 %) Zafarobod (171 tasi, yoki 3,5 %) Arnasoy (176 tasi, yoki 3,6 %) va Yangiobod (110 tasi, yoki 2,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



Ro'yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar bo'yicha taqsimlanishi  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)


	2023 yil 1 yanvar holatiga ro'yxatga olinganlar	shuningdek, 2022 yil yanvar-dekabr oylari davomida:	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>27732</b>	<b>4 667</b>	<b>985</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	7 743	1 099	266
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	978	168	22
Baxmal	1 838	363	55
G'allaorol	2 463	476	109
Sharof Rashidov	3 966	522	66
Do'stlik	1 216	267	98
Zomin	2 295	448	68
Zarbdor	1 405	270	63
Zafarobod	863	159	22
Mirzacho'l	1 102	202	39
Paxtakor	1 297	223	33
Forish	1 919	362	128
Yangiobod	647	108	16

2022 yilning yanvar–dekabr oylarida (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) jami 4 667 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'yektlari 4 505 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 1 099 tasi, yoki 23,5 %), Sharof Rashidov (522 tasi, yoki 11,2 %) va G'allaorol (476 tasi, yoki 10,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2023 yil 1 yanvar holatiga 24 331 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, shundan xususiy korxonalar 4 798 ta, oilaviy korxonalar 2 382 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 16 660 ta, aksionerlik jamiyatlari 20 tani tashkil etadi.



**Ro'yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 30,7 foizi savdo, 24,7 foizi qishloq va o'rmon baliqchilik xo'jaligi, 18,6 foizi sanoat va 4,5 foizi qurilish sohasiga to'g'ri keladi.


Hisobot davrida 985 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

**Xorijiy kapitali ishtirokidagi korxonalar.** 2023 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 228 tani tashkil etdi.

2023 yilning 1 yanvar holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 228 tani tashkil etdi. Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 72 ta, Rossiya Federatsiyasi 57 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 55 ta, Angilya Buyuk Britaniya 11 ta, Afg'oniston 7 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 26 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hamkor davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 142 tasi qo'shma korxonalar, 89 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

2022-2021 yillar yanvar–dekabr oylari holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni – 16 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 66,7 foizga kuzatildi. Bunda, Turkiya Respublikasi – 7 ta, Angilya Buyuk Birtaniya – 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 4 ta, Rossiya Federatsiyasi – 2 ta. Qolaversa boshqa davlatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 3 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar  
(2023 yil 1 yanvar holatiga, birlikda)

	2023 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotganlar soni	shundan	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>228</b>	<b>139</b>	<b>89</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	71	45	26
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	10	6	4
Baxmal	9	7	2
G'allaorol	19	11	8
Sharof Rashidov	22	11	11
Do'stlik	9	5	4
Zomin	17	8	9
Zarbdor	5	4	1
Zafarobod	8	2	6
Mirzacho'l	5	2	3
Paxtakor	8	7	1
Forish	33	24	9
Yangiobod	12	7	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida 71 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 31,1 foiz), Forish tumanida 33 ta (14,5 foiz), Sharof Rashidov tumanida 22 ta (9,6 foiz), G'allaorol tumanida 19 ta (8,3 foiz), Zomin tumanida 17 ta (7,5 foiz), Yangiobod tumanida 12 ta (5,3 foiz), Arnasoy tumanida 10 ta (4,4 foiz), Baxmal tumanida 9 ta (4,0 foiz), Do'stlik tumanida 9 ta (3,9 foiz), Zafarobod tumanida 8 ta (3,5 foiz), Paxtakor tumanida 8 ta (3,5 foiz), Mirzacho'l tumanida 5 ta (2,2 foiz) hamda Zarbdor tumanlarida 4 ta (1,8 foiz) ni tashkil etadi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi  
(2023 yil 1 yanvar holatiga)

	Korxonalar soni, birlik	Jamiga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>228</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	41	18,0
Sanoat	118	51,8
Qurilish	14	6,1
Savdo	26	11,4
Tashish va saqlash	7	3,1
Yashash va ovqatlanish	4	1,8
Axborot va aloqa	3	1,3
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2	0,9
Boshqa faoliyat turlari	13	5,6

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan 228 ta korxonaning 118 tasi (51,8 %) sanoat, 41 tasi (18,0 %) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 26 tasi (11,4 %) savdo, 14 tasi (6,1 %) qurilish, 4 tasi (1,8 %) yashash va ovqatlanish, 7 tasi (3,1 %) tashish va saqlash, 3 tasi (1,3 %) axborot va aloqa, 2 tasi (0,9 %) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish hamda 13 % tasi (5,7 %) boshqa sohasiga to‘g‘ri keladi.


### Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023 yil 1 yanvar holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 22 474 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich 2022 yil 1 yanvar holatiga nisbatan 115,5 foizga oshgan. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya‘ni 6496 tasi (112,2 %) Jizzax shahriga, 3417 tasi (113,0 %) Sharof Rashidov, 1953 tasi (118,4 %) G‘allaorol va 1842 tasi (120,9 %) Zomin tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 22 474 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6736 tasi (30,0 %) savdo, 4049 tasi (18,0 %) sanoat, 4612 tasi (20,5 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 2198 tasi (9,8 %) qurilishda, 1606 tasi (7,1 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 632 tasi (2,8 %) tashish va saqlash, 266 tasi (1,2 %) axborot va aloqa sohasi, 269 tasi (1,2 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 2106 tasi (9,4 %) boshqa faoliyat turlari hissariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat tarmoqlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohaslariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha taqsimoti, % da (dexqon va fermer xo'jaliklarisiz)



2022 yilning yanvar–dekabr oylarida 4 505 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2021 yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 103,0 foizni tashkil qildi. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahrida (1056 ta), Sharof Rashidov (506 ta), G'allaorol (469 ta) va Zomin (431 ta) Forish (350 ta) Baxmal (348 ta) Do'stlik (260 ta) Zarbdor (263 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (101 ta), Zafarobod (152 ta) hamda Arnasoy (161 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni taqqoslanganida eng ko'pi savdo (1433 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (1151 ta), sanoat (866 ta), qurilish (210 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (269 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (53 ta), tashish va saqlash (68 ta) hamda axborot va aloqa (79 ta) sohalarida hissasiga to'g'ri kelgan.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023 yilning 1 yanvar holatiga 2 382 tani tashkil etdi, ulardan 2 140 tasi yoki 89,8 foizi faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining 873 tasi yoki 40,8 foizi sanoat, 494 tasi yoki 23,1 foizi savdo, 308 tasi yoki 14,4 foizi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 293 tasi yoki 13,7 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13 tasi yoki 0,6 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 12 tasi yoki 0,6 foizi qurilish, 13 tasi yoki 0,6 foizi axborot va aloqa, 2 tasi yoki 0,1 tashish va saqlash hamda 132 tasi yoki 6,2 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.



**Xususiy korxonalar soni**  
(2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2023 yil 1 yanvar** holatiga ko'ra 2382 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 573 taga yoki 131,7 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2 140 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 479 taga yoki 128,8 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 727 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 201 taga yoki 138,2 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni**  
(2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni **2023 yil 1 yanvar** holatiga ko'ra 16 660 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 699 taga yoki 119,3 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 15 623 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2312 taga yoki 117,4 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3220 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 169 taga yoki 95,0 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

